

O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI YETISHTIRISHDA MAVJUD KAMCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Ismoilova G. T.
Oriental universiteti dot.v.b.
Kurbanova I. O.
Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sohasida 2017-yildan boshlab chuqur islohotlar amalga oshirilayotganiga qaramay, hozirgi kunga kelib tarmoqda bir qator tizimli muammolar mavjud bo‘lib qolmoqda. Ularning bartaraf etilishi agrar sektorning barqarorligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda mavjud kamchiliklarni quyida asosiy yo‘nalishlarga ajratib olishimiz mumkin.

Kirish

Viloyatlar kesimida hosildorlik darajasi, foydalanilayotgan texnika va innovatsion texnologiyalarga kirish imkoniyatida katta tafovutlar mavjud. Masalan, irrigatsiya tizimlarining yomon holati, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning sifati va shudgorlash darajasi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatlarida orqada qolish holatlari kuzatilmoqda. Har bir hududda agroiqlimiy sharoit va mavjud resurslar asosida ixtisoslashtirilgan “agrozonalar”ni shakllantirish zarur. Bu tajriba Turkiya va Xitoyda muvaffaqiyatli amalga oshirilib bugungi kunda o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatib kelmoqda.

1. Suv va yer resurslaridan foydalanishdagi samarasizlik.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatdagi sug‘oriladigan yerlarning 40% dan ortig‘i yuqori darajada sho‘rlangan va suv ta’minoti yillik 15–20% gacha yo‘qotishga uchraydi. Suvdan tejab foydalanish texnologiyalarining joriy etilishi sust kechmoqda. Tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini ommaviy subsidiyalash (50–70%) hamda “suv huquqi bozori” asosida foydalanish limitlarini belgilovchi tizim yaratish. Ushbu sohada tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini mahalliyashtirgan holda iqlim va hart sharoitlarga moslashtirib yanada takomillashtirish lozim va uning ham iqtisodiy ham ijtimoiy hamda ekologik samaradorlik darajasi yanada ortgan bo‘lar edi.

2. Kichik ishlab chiqaruvchilar va klasterlar o‘rtasida uzilishlar.

Ayni paytda klasterlar asosiy ustunlikka ega bo‘lsa-da, ularning ayrimlari kichik fermerlar bilan mustahkam iqtisodiy aloqalarni o‘rnatmagan. Natijada ko‘plab kichik xo‘jaliklar kooperatsiyadan chetda qolmoqda. Majburiy kooperatsiyaga emas, balki manfaatdorlik asosidagi “raqamli kooperatsiya platformalari”ni joriy etish, bunda fermerlar xizmatlar, texnika va xarid bo‘yicha onlayn birjalar orqali bog‘lanadi. Bu esa o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi sohasida shaffoflikni ta‘minlaydi.

3. Moliyalashtirish va investitsiyaviy muhitda mavjud muammolar.

Ko‘pchilik fermerlar tijorat kreditlaridan foydalana olmaydi. Kreditlar yuqori stavkali, garov talablar yuqori, ko‘pincha likvid bo‘lmagan aktivlar mavjud. Ayniqsa, yosh fermerlar va ayol tadbirkorlar uchun moliyalashtirish imkoniyati cheklangan. “Agrobank” orqali maxsus “innovatsion loyiha kredit liniyalari”ni ochish, gender va yoshga asoslangan subsidiya dasturlarini kengaytirish lozim.

4. Agroxizmatlar va raqamlashtirishdagi nomutanosiblik.

Ko‘pgina tumanlarda agrokimyoviy tahlil laboratoriyalari, agrotexnika parklari va AKIS tarmoqlari mavjud emas. AKIS tizimi joriy etilgan hududlarda esa hosildorlik 20–30% yuqori bo‘lmoqda, bu raqamlashtirish samaradorligini isbotlaydi. Har bir tuman miqyosida agro CRM, AKIS va Agroplatforma integratsiyasini majburiy asosda yo‘lga qo‘yish, bu orqali resurslar, texnika, urug‘ va xizmatlarning real vaqtda monitoringini ta‘minlash lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot olib borish jarayonida tanlanma kuzatuv, inkluziv tahlil, induksion hamda deduksion tahlillardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Yuqoridagi mavjud kamchiliklar hechkimga sir emas, qishloq xo‘jaligi sohasiga alohida e‘tibor qaratilmas ekan, iqtisodiy jihatdan rivojlanish ham orqacha qaytishda davom etaveradi. Aholi sonining kundan kunga muntazam ravishda oshib borishi mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabni ham o‘z navbatida oshirib bormoqda. Shuning uchun ham so‘ngi yillarda mamlakatizmida ushbu sohani rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilib, barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy konsepsiyalari tarkibida ushbu soha alohida ahamiyat kasb

etmoqda, Shuning uchun ham ushbu magistrlik ishida bugungi kundagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda mavjud real kamchililarni o‘rganib chiqqan holatda ularga nazariy va amliy yechim berishiga e’tibor qaratilgan.

Quyidagi jadvalda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda mavjud asosiy kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari keltirib o‘tilgan.

1-jadval

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari

| Kamchiliklar | Tavsif | Bartarf etish yo‘llari |
|---|---|--|
| Suv resurslarining yetishmasligi va isrofgarchiligi | Qishloq xo‘jaligida suvning 90% dan ortig‘i sarflanadi. Suv taqsimoti tizimi eskirgan, ochiq kanallar orqali suv isrof bo‘ladi. | Tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish; suvni hisoblash tizimini raqamlashtirish. |
| Zamonaviy texnika va texnologiyalar yetishmasligi | Ko‘plab fermer xo‘jaliklari eski texnika vositalaridan foydalanmoqda. | Agrotexnika vositalarini yangilash uchun subsidiyalar va lizing mexanizmlarini kuchaytirish. |
| Yer resurslaridan samarasiz foydalanish | Yerning meliorativ holati yomon, unumdorlik pasaygan. | Yer monitoring tizimini kuchaytirish, ekin almashuvini joriy qilish. |
| Moliyalashtirish va investitsiya yetishmovchiligi | Fermerlar kredit olishda qiynalmoqda. | Maxsus moliyalashtirish fondlarini tashkil qilish, FDI jalb etish. |
| Bozor infratuzilmasining zaifligi | Mahsulotni sotish, saqlash infratuzilmasi yetarli emas. | Agro-logistika markazlari qurish, kooperatsiyalarni rivojlantirish. |

| | | |
|--|--|--|
| Kadrlar tayyorlash tizimidagi muammolar | Amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislar tanqis. | AKISni rivojlantirish, amaliy hamkorlikni kuchaytirish. |
| Iqlim o'zgarishi va ekologik muammolar | Iqlim o'zgarishi tufayli hosildorlik pasaymoqda. | Agroekologik rejalashtirish, barqaror qishloq xo'jaligi tamoyillari. |
| Raqamli texnologiyalarni qo'llashdagi ortda qolish | Raqamli texnologiyalardan foydalanish saviyasi past. | Smart farming, IoT, GPS texnologiyalarni subsidiya asosida joriy qilish. |

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va Jahon banki tahlillariga ko'ra, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy qilish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini 20–30% ga oshirish mumkin.

S. Zorya (Jahon banki, 2023) ta'kidlaganidek, O'zbekistonda hosildorlikni oshirish va samaradorlikni ta'minlash uchun hosildor navlar, suv tejavchi texnologiyalar va agrotexnik yondashuvlarni kompleks tatbiq etish muhim sanaladi.

Yuqorida aytib o'tilgan muammolardan qishloq xo'jaligini rivojlantirishda hududlar o'rtasida tafovutning kata ekanligini bir necha bor ta'kidlab o'tik va bunga asosli sabablarni ham keltirib o'tdik. Quyidagi berilgan jadvalda esa mamlakatimizda 2015 – 2024 yillar oralig'ida qishloq xo'jaligi sohasida yetishtirilgan va ishlab chiqilgan umumiy mahsulot hajmlari keltirib o'tilgan.

2-jadval

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmi

| Hududlar | 2015 | 2018 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|--------------------------|---------|----------|----------|----------|----------|----------|--------|
| O'zbekiston Respublikasi | 81794,3 | 148199,3 | 216283,1 | 250250,6 | 303415,5 | 345191,7 | 405418 |

| | | | | | | | |
|-------------------------------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 2558,7 | 4801,3 | 8208,1 | 9751,6 | 11511,8 | 13348,2 | 15212,1 |
| Andijon viloyati | 7992,4 | 15290,9 | 23686,7 | 26096,1 | 30413 | 35587,4 | 41035,7 |
| Buxoro viloyati | 6856,6 | 12968,8 | 19182,1 | 23876 | 28529,3 | 32867,5 | 37174,5 |
| Jizzax viloyati | 4772 | 8835 | 13720,1 | 16352,8 | 20471,1 | 23239,2 | 26730 |
| Qashqadaryo viloyati | 7689,1 | 14360,6 | 19933,9 | 23777,8 | 28275,6 | 32240,7 | 38462,6 |
| Navoiy viloyati | 3556,7 | 6470,3 | 9467,8 | 11309,7 | 14547,2 | 15151,7 | 18318,9 |
| Namangan viloyati | 5470,5 | 10215,7 | 15509 | 17913,1 | 21596,1 | 25157,7 | 30015,6 |
| Samarqand viloyati | 11747,6 | 21506,8 | 28379,5 | 32158 | 38549,7 | 40428,1 | 49025,9 |
| Surxondaryo viloyati | 6761,9 | 11608,1 | 17844,1 | 19424 | 23415,5 | 26755,7 | 32849,3 |
| Sirdaryo viloyati | 2868 | 5074 | 7401,5 | 8002 | 9755 | 11523,3 | 13241,2 |
| Toshkent viloyati | 9069,2 | 15594,8 | 20417,1 | 23875,1 | 29538,3 | 33010,7 | 38779,8 |
| Farg‘ona viloyati | 7274,3 | 12388 | 18532,2 | 21455,5 | 27501,2 | 32737 | 38326 |
| Xorazm viloyati | 5177,3 | 9085 | 14001 | 16258,9 | 19311,7 | 23144,5 | 26246,4 |
| Toshkent shahri | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |

Ushbu ma'lumotdan kelib chiqib 2015–2023 yillar davomida O'zbekiston viloyatlari bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy ishlab chiqarish hajmi keltirib o'tilgan. Eng yuqori o'sishga ega 5 viloyat Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax viloyati, Buxoro viloyati, Namangan viloyati hamda Farg'ona viloyati hisoblanadi. Ular 350–420% oralig'ida o'sish ko'rsatgan, bu esa qishloq xo'jaligi texnologiyalari, klasterlar va suvdan foydalanishdagi yutuqlarni anglatadi.

Eng past o'sishga ega 5 viloyat quyidagilar Toshkent shahri (ehtimol, qishloq xo'jaligi yo'qligi sababli), Samarqand viloyati, Toshkent viloyati, Surxondaryo viloyati

Sirdaryo viloyati boshqa viloyatlar nisbatan barqaror yoki sust o'sish sur'atiga ega bo'lgan. Bu yerda ishlab chiqarish hajmining bazaviy darajasi yuqori bo'lgani sababli o'sish nisbatan sekinroq kechgan bo'lishi mumkin.

3-jadval

Viloyatlar kesimida o'sish sur'atlari (2015–2023)

| Klassifikator | 2015 | 2024 | O'sish (%) | Umumiy farq (ming tonna) | Kategoriya |
|-------------------------------|--------|---------|------------|--------------------------|------------------------|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 2558.7 | 13348.2 | 421.68 | 10789.5 | Eng yuqori rivojlanish |
| Jizzax viloyati | 4772.0 | 23239.2 | 386.99 | 18467.2 | Eng yuqori rivojlanish |
| Buxoro viloyati | 6856.6 | 32867.5 | 379.36 | 26010.9 | Eng yuqori rivojlanish |
| Namangan viloyati | 5470.5 | 25157.7 | 359.88 | 19687.2 | Eng yuqori rivojlanish |
| Farg'ona viloyati | 7274.3 | 32737.0 | 350.04 | 25462.7 | Eng yuqori rivojlanish |
| Xorazm viloyati | 5177.3 | 23144.5 | 347.04 | 17967.2 | Tez rivojlanish |


| | | | | | |
|----------------------|---------|---------|--------|---------|----------------------|
| Andijon viloyati | 7992.4 | 35587.4 | 345.27 | 27595.0 | Tez rivojlanish |
| Navoiy viloyati | 3556.7 | 15151.7 | 326.0 | 11595.0 | Tez rivojlanish |
| Qashqadaryo viloyati | 7689.1 | 32240.7 | 319.3 | 24551.6 | Tez rivojlanish |
| Sirdaryo viloyati | 2868.0 | 11523.3 | 301.79 | 8655.3 | Tez rivojlanish |
| Surxondaryo viloyati | 6761.9 | 26755.7 | 295.68 | 19993.8 | O'rtacha rivojlanish |
| Toshkent viloyati | 9069.2 | 33010.7 | 263.99 | 23941.5 | O'rtacha rivojlanish |
| Samarqand viloyati | 11747.6 | 40428.1 | 244.14 | 28680.5 | Sust rivojlanish |
| Toshkent shahri | 0.0 | 0.0 | nan | 0.0 | nan |

Rivojlanish darajalariga ko'ra tahlilni amalga oshiradigan bo'lsak eng yuqori rivojlanish 350% ko'rsatkich bilan Qoraqalpog'iston, Jizzax, Buxoro, Namangan, Farg'ona viloyatlari bu toifaga kiradi. Ular intensiv investitsiyalar, agroklastlar va texnologik modernizatsiya natijasida keskin o'sishga erishgan.

Tez rivojlanish 300 - 350% darajasiga ega bo'lgan Andijon, Xorazm, Navoiy viloyatlari. Suv tejoychi texnologiyalar va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish yo'llari asosida oldinga siljigan.

O'rtacha rivojlanish 250 - 300% Sirdaryo, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida barqaror o'sish kuzatilgan, lekin yuqoridagilarga nisbatan sekinroq.

Sust rivojlanish $\leq 250\%$ Toshkent shahri (nol o'sish), Toshkent viloyati va Samarqand viloyati, bu hududlar turg'unlik yoki sanoatlashtirish tufayli qishloq xo'jaligi salohiyatini kamroq ko'rsatgan.



1-chizma. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda eng yuqori va eng past o'sishga ega tumanlar

Biz aytib o'tgan kamchiliklarni usubu jadval hamda grafikda yaqqol isbotini ko'rishimiz mumkun. Ammo xulosa qilishga shoshmaymiz sababi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda endogen va ekzogen omillarni ham sedan chiqarmaslik lozim. Biz bilamizki bugungi kunda "Yashil" iqtisodiyot tushunchasi barcha sohalarni qamrab olmoqda, avvalo ushbu tushunchani biz qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdan boshlashimiz lozim. Sababi qishloq xo'jaligi nafaqat iqtisodiy rivojlanish uchun balkim ijtimoiy jihatdan xavfsizlikka erishish hamda aholining turmush tarzini yaxshilash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo yuqoridagi jadvaldan ko'rib turganimizdek qishloq xo'jaligi mahsulotlkarini ishlab chiqishda yoki qishloq xo'jaligi sohasiga investitsiyalarning teng taqsimlanmaganligini ko'rishimiz mumkun. Buning natijasi ma'lum bir hudularda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish yildan yilga yaxshilanib brogan bo'lsa, ba'zi bir hududlarda umuman qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ihlab chiqarish mavjud emas. Bunga asosan ikki sabab bo'lishi mumkun, bulardan birinchisi hududning iqlimidan kelib chiqqan holda ixtisoslashganligi, ya'ni voha tomonlarda suv muammosi mavjud bo'lganligi uchun sanoatlashish g'oyasi ostida rivojlanish maqsad qilingan bo'lsa, ikkinchidan to'liqligicha sanoatlashgan holatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun resurs va hom ashyolarni ishlab chiqqrishga ixtisoslashgan hududlar ham bo'lishimi mumkun. Toshkent shahri esa mamlakatimiz markazi bo'lganligi, poytaxt bo'lganligi uchun asosan barcha iqtisodiy

sohalarning markazi sifarida namoyon bo'ladi, shuning uchun ham qishloq xo'jaligi ushbu hududda umuman rivojlantirilmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Quyidagi berilgan jadvallarda esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini hududlar kesimida tarmoqlari va sohalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmlari keltirib o'tilgan. Umuman olganda mamlakatimiz bugungi kunda agar - industrial davlatdan sanoatlashgan davlatga o'tishga harakat qilmoqda ammo bu birmuncha murakkab jarayon hisoblanadi. Buning eng asosiy sababi aholi soning o'sishi, o'zlashtirilmagan yerlarning hisobiga qishloq xo'jaligi to'liqligicha aholini ehtiyojlarini qondira olmasligi hamda moliyalashtirish sohasi bugungi kunda ichki investitsiyalardan ko'ra tashqi investitsiyalarga tayanoytganligini aytib o'tishimiz mumkun. Shuning uchun ham bugungi sanoatlashgan davrga kelganimizda ham qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga va uning samaradorligiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

Quyidagi jadvalda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmini ko'rishimiz mumkun.

4-jadval

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi

| Hududlar | 2015 | 2018 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|-------------------------------|---------|----------|----------|----------|----------|---------|----------|
| O'zbekiston Respublikasi | 85101,7 | 154369,4 | 224265,9 | 261892,2 | 317027,6 | 362898 | 426030,2 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 2659,3 | 4977,3 | 8769,3 | 10532,2 | 12340,9 | 14374 | 16390,8 |
| Andijon viloyati | 8326,9 | 15950 | 24314,9 | 27056,8 | 31582,5 | 37246,9 | 42942,4 |
| Buxoro viloyati | 6986 | 13178,6 | 19436,2 | 24367,5 | 29170,4 | 33653 | 37921,8 |
| Jizzax viloyati | 4969,4 | 9194,9 | 14105,9 | 16908,8 | 21202,8 | 24203,6 | 27860,9 |
| Qashqadaryo viloyati | 7899,3 | 14761,6 | 20415,1 | 24510,2 | 29232,8 | 33549,2 | 39924,2 |
| Navoiy viloyati | 3746,5 | 6850,7 | 9934,2 | 11908,1 | 15224,9 | 16442 | 19906,8 |
| Namangan viloyati | 6058,8 | 11398,3 | 16832,2 | 19827,9 | 23654,5 | 27640,8 | 32868 |


| | | | | | | | |
|----------------------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Samarqand viloyati | 12176,6 | 22308,7 | 29294,7 | 33759,4 | 40329,6 | 42088,9 | 51023,3 |
| Surxondaryo viloyati | 6882,6 | 11837,2 | 18152 | 19874,5 | 23881,8 | 27427,5 | 33646,6 |
| Sirdaryo viloyati | 3113,3 | 5490 | 7984,8 | 8709,5 | 10485,2 | 12606,9 | 14519,5 |
| Toshkent viloyati | 9521,9 | 16378,5 | 21632,7 | 25410,5 | 31371,1 | 35354,9 | 41665,1 |
| Farg‘ona viloyati | 7459,1 | 12692,3 | 18946,3 | 22069,1 | 28223,2 | 33723,6 | 39545,9 |
| Xorazm viloyati | 5302 | 9351,3 | 14447,6 | 16957,7 | 20327,9 | 24586,7 | 27814,9 |
| Toshkent shahri | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |

Yuqoridagi jadvalda 2015–2024 yillar oralig‘ida O‘zbekistonning barcha hududlarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlari) umumiy hajmining yillik o‘shish dinamikasi ko‘rsatilgan. Jadvalda berilgan ma’lumotlar asosida quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish mumkin. Eng yuqori ko‘rsatkichlar Andijon, Farg‘ona, va Samarqand viloyatlariga to‘g‘ri kelmoqda. Ushbu hududlar 2024-yilga kelib 40 trln so‘m atrofida mahsulot yetishtirishga erishgan. Bu viloyatlar aholisi zich, yer unumdorligi yuqori, tadbirkorlik rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

O‘rta darajadagi viloyatlar qatoriga Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro, va Toshkent viloyatini kiritishimiz mumkin. Bu viloyatlar uchun barqaror o‘shish xos bo‘lib, 2024-yilda 25–38 trln so‘m oralig‘ida mahsulot yetishtirishga erishilgan.

Navoiy, Sirdaryo, va Qoraqalpog‘iston Respublikasi nisbatan past hajmda qolmoqda 15 - 20 trln so‘m atrofida. Bu hududlar resurs va yer-suv imkoniyatlari cheklangan bo‘lganligi sababli sust rivojlanmoqda.

Quyida berilgan infografikadan ham o‘shish suratlarini hududlar kesimida yaqqol ko‘rishimiz mumkin.



2-chizma. 2015 – 2024 yillarda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari hajmi (mlrd so‘m)

Eng tez rivojlangan viloyatlar Andijon viloyati - 2015 - yilda 8.3 trln so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2024 - yilda bu ko‘rsatkich 42.9 trln so‘mga yetgan (5 barobardan ortiq o‘shish). Samarqand viloyati ham 5 barobarga yaqin o‘shish ko‘rsatgan.

Eng sust o‘shish sur‘ati Qoraqalpog‘iston Respublikasi 2015 - 2024 oralig‘ida 2.7 trln so‘mdan 16.4 trln so‘mga yetgan (6 barobar o‘shish bo‘lsa-da, umumiy hajmda eng past ko‘rsatkichlar saqlanib qolgan).

Umuman olganda 2015 - 2024 yillar davomida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi O‘zbekistonda o‘rtacha 15–25% o‘shish bilan davom etgan.

Bunga sabab bo‘lgan eng muhim omillar - klaster tizimi, yer islohotlari, raqamlashtirish, eksportni rag‘batlantirish va davlat subsidiyalaridir.

Bu o‘zgarishlar viloyatlar kesimida ham farq qiladi: texnologiya va eksport salohiyati yuqori bo‘lgan hududlar (Andijon, Samarqand) eng yuqori sur‘atda o‘sgan bo‘lsa, infratuzilmasi sust va iqlim cheklovlariga ega bo‘lgan hududlar (Qoraqalpog‘iston, Navoiy) pastroq o‘shish sur‘atini ko‘rsatmoqda.

Keyingi navbatda qishloq xo‘jaligi tarkibiga kiruvchi dehqonchilik mahsulotlarining umumiy hajmini, o‘shish dinamikasini hamda o‘shishiga sabab bo‘luvchi omillarni tahlil qilamiz.

5-jadval

Dehqonchilik mahsulotlarining umumiy hajmi

| Klassifikator | 2015 | 2018 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|---------------|------|------|------|------|------|------|------|
|---------------|------|------|------|------|------|------|------|


| | | | | | | | |
|-------------------------------|---------|---------|----------|----------|----------|----------|----------|
| O‘zbekiston Respublikasi | 43194,3 | 83303,6 | 111904,5 | 123858,8 | 152130,4 | 177962,7 | 203082,7 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 1164,2 | 2276,7 | 3947,9 | 4509,7 | 5400,4 | 6486,6 | 6918,5 |
| Andijon viloyati | 5059,1 | 10516,8 | 15926,3 | 16711,2 | 18777,7 | 22373,9 | 24614 |
| Buxoro viloyati | 3337,2 | 7079,5 | 9463 | 11646,6 | 14100,3 | 16848,3 | 17857 |
| Jizzax viloyati | 1910,3 | 3772,2 | 5506,8 | 6317 | 7762,6 | 9808,7 | 10387,1 |
| Qashqadaryo viloyati | 3254,4 | 6605 | 7978,9 | 9236,3 | 11332 | 13266,4 | 14913,8 |
| Navoiy viloyati | 1333,5 | 2769,1 | 3442,1 | 3989,1 | 4963,2 | 5267,1 | 6449 |
| Namangan viloyati | 3230,2 | 6198,9 | 9020,5 | 9818,6 | 12352,3 | 14878,2 | 17643,9 |
| Samarqand viloyati | 6974,1 | 13762,7 | 15445,4 | 17467,7 | 20923,9 | 21472 | 26331,1 |
| Surxondaryo viloyati | 3762,8 | 6810,8 | 9718,3 | 9696,2 | 12171,1 | 13963,4 | 16878 |
| Sirdaryo viloyati | 1737,7 | 3116,8 | 4355,1 | 4424,4 | 5566,5 | 6871,5 | 7548,7 |
| Toshkent viloyati | 4687,3 | 8111,3 | 9997,1 | 10831 | 13965,4 | 16283,3 | 18432,3 |
| Farg‘ona viloyati | 4238,1 | 7659,5 | 10684,3 | 11904,3 | 16165,5 | 19766,6 | 23126,2 |
| Xorazm viloyati | 2505,4 | 4624,3 | 6418,8 | 7306,7 | 8649,5 | 10676,7 | 11983,1 |

| | | | | | | | | |
|----------|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Toshkent | | | | | | | | |
| shahri | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki Eng yuqori dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan hududlar Andijon, Samarqand, Farg'ona viloyatlari hisoblanib - 2024-yilga kelib hajmlar 20 trln so'mdan yuqori bo'lgan. Bu hududlarda intensiv dehqonchilik, sug'oriladigan yerlar ko'pligi va aholi zichligi sababli hosildorlik yuqori.

O'rta guruhdagi hududlarga esa Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari aytib o'tishimiz mumkun. 2024 - yilga kelib 10 - 18 trln so'm oralig'ida ishlab chiqarish hajmiga ega. Bu viloyatlar uchun qisman resurs cheklovlari va iqtisodiy infrastrukturani rivojlantirish ehtiyoji mavjudligi qaysidur ma'noda cheklov sifatida aytib o'tishimiz mumkun.

Sust rivojlangan hududlar qatoriga Qoraqalpog'iston, Sirdaryo, Navoiy hududlarini aytib o'tishimiz mumkun. Ushbu hududlarda 2024 - yilda ham 7 - 10 trln so'm oralig'ida qolmoqda. Buning sabablari suv tanqisligi, kam aholilik hamda davlat tomonidan kam iqtisodiy rag'bat berilishi bilan izohlanadi.



3-chizma. 2015 – 2024 yillarda dehqonchilik mahsulotlarining umumiy hajmi

Ushbu sohada ishlab chiqarishning ortishiga sabab bo'luvchi omillarga dehqon va fermer xo'jaliklariga imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratilishi urug'lik, o'g'it, texnika xarajatlari qoplanishini aytib o'tishimiz mumkin. Shuningdek sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish - tomchilatib sug'orish texnologiyalari keng joriy etildi. Raqamli texnologiyalar va agrotexnika joriy qilinishi – dronlar, mobil ilovalar yordamida agrotexnik xizmatlar soddalashtirildi. Meva - sabzavot eksportini qo'llab

- quvvatlash siyosati - yetishtirilgan mahsulotga talab oshdi, bu esa ishlab chiqarish hajmiga ijobiy ta'sir qildi.


5-jadval

Chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmi

| Hududlar | 2015 | 2018 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|-------------------------------|--------|---------|----------|----------|----------|---------|----------|
| O'zbekiston Respublikasi | 38600 | 64895,7 | 104378,3 | 126391,8 | 151285,1 | 167229 | 202335,3 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 1394,5 | 2524,6 | 4260,2 | 5241,9 | 6111,4 | 6861,6 | 8293,6 |
| Andijon viloyati | 2933,3 | 4774,1 | 7760,4 | 9384,9 | 11635,3 | 13213,5 | 16421,7 |
| Buxoro viloyati | 3519,4 | 5889,3 | 9719,1 | 12229,4 | 14429 | 16019,2 | 19317,5 |
| Jizzax viloyati | 2861,7 | 5062,8 | 8213,3 | 10035,8 | 12708,5 | 13430,5 | 16342,9 |
| Qashqadaryo viloyati | 4434,7 | 7755,6 | 11955 | 14541,5 | 16943,6 | 18974,3 | 23548,8 |
| Navoiy viloyati | 2223,2 | 3701,2 | 6025,7 | 7320,6 | 9584 | 9884,6 | 11869,9 |
| Namangan viloyati | 2240,3 | 4016,8 | 6488,4 | 8094,5 | 9243,8 | 10279,5 | 12371,7 |
| Samarqand viloyati | 4773,5 | 7744,1 | 12934,1 | 14690,3 | 17625,8 | 18956,1 | 22694,8 |
| Surxondaryo viloyati | 2999,1 | 4797,3 | 8125,7 | 9727,8 | 11244,4 | 12792,3 | 15971,3 |
| Sirdaryo viloyati | 1130,3 | 1957,2 | 3046,4 | 3577,6 | 4188,5 | 4651,8 | 5692,5 |
| Toshkent viloyati | 4381,9 | 7483,5 | 10419,9 | 13044,1 | 15572,9 | 16727,4 | 20347,5 |
| Farg'ona viloyati | 3036,2 | 4728,5 | 7847,9 | 9551,2 | 11335,7 | 12970,4 | 15199,8 |
| Xorazm viloyati | 2671,9 | 4460,7 | 7582,2 | 8952,2 | 10662,2 | 12467,8 | 14263,3 |
| Toshkent shahri | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |

Chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmi eng yuqori o'sish sur'atilari Andijon, Buxoro, Samarqand, Farg'ona viloyatlariga to'g'ri kelib - 2024-yilda 16–19 trln so'm chorvachilik mahsuloti ishlab chiqargan. Ushbu hududlarda yirik chorvachilik komplekslari, klasterlar, soyabonli boqish tizimlari keng joriy etilgan.

Sust o‘sayotgan hududlar qatoriga esa Qoraqalpog‘iston, Navoiy, Sirdaryo viloyatlarini aytib o‘tishimiz mumkun. Ushbu hududlarda 2024 - yilda ham 6–8 trln so‘m atrofida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi amalga oshirilmoqda. Bu hududlar resurslar tanqisligi, investitsiya kamligi va kam infratuzilma sababli past ko‘rsatkichlarga ega.



4-chizma. 2015 – 2024 yillarda chorvachilik mahsulotlarining umumiy hajmi

Yuqoridagi grafikda 2015–2024 yillar oralig‘ida chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmi viloyatlar kesimida ko‘rsatilgan. Magistrlik dissertatsiyasi doirasida izlanish olib borish jarayonida bu ma'lumotlarni iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida tahlil qilib va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida agrar sohada olib borilayotgan chuqur islohotlarga qaramay, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda bir qator tizimli kamchiliklar mavjud bo‘lib qolmoqda. Ushbu kamchiliklar sohaning resurslardan foydalanish samaradorligi, hududlararo tengsizlik, infratuzilma, moliyaviy vositalar, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish darajasi hamda raqamlashtirish imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar kompleks yondashuv asosida, ilmiy asoslangan va amaliy yechimlar orqali bartaraf etilishi mumkinligi isbotlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o‘smoqda, biroq bu o‘shish barcha viloyatlar

kesimida bir xilda emas. Jumladan, Andijon, Samarqand, Farg‘ona kabi viloyatlar intensiv texnologiyalar va eksport salohiyati yuqoriligi sababli yuqori o‘shishga erishgan bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston, Navoiy va Sirdaryo viloyatlari hali ham past o‘shish sur‘atlariga ega bo‘lib qolmoqda. Bu holat esa investitsiyalarning teng taqsimlanmagani, resurslar cheklanganligi va agroinfratuzilmaning rivojlanmaganligi bilan bog‘liqdir.

Ushbu maqola qishloq xo‘jaligidagi mavjud muammolar chuqur o‘rganilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha bir qator ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, suv resurslaridan foydalanishda tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini kengaytirish, raqamli platformalar orqali fermerlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish, kreditlash mexanizmlarini soddalashtirish, agroxizmatlar tizimini hududiy darajada joriy qilish va agrotahlil laboratoriyalarining sonini oshirish kabi yo‘nalishlar keltirib o‘tildi.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo‘jaligida resurslardan oqilona foydalanish, hududiy rivojlanishdagi tafovutlarni kamaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali O‘zbekiston agrar sektorining samaradorligi va barqaror rivojlanishiga erishish mumkin. Ushbu magistrlik tadqiqoti esa aynan shu maqsadlarga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PF-5853-son Farmon. Qabul qilingan sana: 23.10.2019. <https://lex.uz/docs/4567337>
2. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi; Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (2023). 2017–2023-yillarda paxta-to‘qimachilik klasterlari rivoji va hosildorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar. Toshkent. <https://agro.uz>, <https://mift.uz>
3. Zorya, S. (2023). Uzbekistan Agriculture Sector Review. Jahon banki hisobotlari. Washington, D.C.: World Bank Publications.

4. Ergashev, R.X., Fayziyeva, Sh.Sh., Xamrayeva, S.N. (2018). *Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti*. Toshkent: Iqtisodiyot.
5. Salamov, I., Kazakova, Z.S., Nazarova, M. (2023). *Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti*. Samarqand: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti nashriyoti.
6. Mahmudov, S. Sh. (2023). Färe-Primont indeksi asosida O'zbekistonda qishloq xo'jaligi samaradorligini baholash: Hududlar kesimidagi DEA tahlil. *Agrar iqtisodiyot ilmiy jurnali*, №4.
7. FAO. (2022). *Innovative Agricultural Development in Central Asia: Challenges and Solutions*. United Nations Food and Agriculture Organization. <https://www.fao.org>
8. Hoshimov, B. (2020). Agrar siyosat va texnologik transformatsiya: O'zbekiston modeli. *Economic Review Uzbekistan*, №3(45), 15–23.
9. G'ulomov, S.S. (2019). *Barqaror qishloq xo'jaligi va innovatsion rivojlanish*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
10. OECD. (2021). *Agricultural Innovation Systems: Country Case Studies – Uzbekistan*. Paris: OECD Publishing. <https://www.oecd.org>
11. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2015–2024). *Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha statistik to'plamlar*. <https://stat.uz>
12. Qodirov, O. (2021). Raqamli qishloq xo'jaligi: Imkoniyatlar va cheklovlar. *Iqtisodiyot va innovatsiyalar ilmiy jurnali*, №6, 50–57.
13. UNDP Uzbekistan. (2022). *Green Agriculture Strategy for Uzbekistan*. BMT Taraqqiyot Dasturi. <https://www.uz.undp.org>
14. Tursunov, A.A. (2020). O'zbekiston qishloq xo'jaligida klaster tizimini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari. *Iqtisodiyot va ta'lim jurnali*, №2, 28–35.
15. Nazarov, B.K. (2022). Sug'oriladigan yerlar melioratsiyasi va hosildorlikni oshirish yo'llari. *Qishloq xo'jaligi fanlari axborotnomasi*, №1, 64–71.